

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLAR

Suxanberdiyeva Sitara Sanjar qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari birinchi qiyosiy lug‘at hisoblanadi. Asar XI asr Qoraxoniylar davrida yozilgan va undagi so‘zlarning aksariyati o‘sha davr uchun istee‘moldagi so‘zlar edi. Asar Mahmud Qoshg‘ariyning uzoq yillik mehnatining ulkan samarasidir. Bugungi kunda esa uni o‘qish va o‘qitish birlamchi vazifalarimizdandir.

Kalit so‘zlar: tushunchalar tahlili, “Devonu lug‘otit-turk”, ismlar, fe‘llar, unli va undosh fonemalar.

Annotation. Mahmud Kashgari's work "Devonu Lugatit Turk" is the first comparative dictionary. The work was written during the 11th century Karakhanids, and most of the words in it were common words of that time. The work is the great result of Mahmud Kashgari's long-term work. Today, reading and teaching it is one of our primary tasks.

Key words: concept analysis, "Devonu dictionary-Turkish", nouns, verbs, vowel and consonant phonemes.

Аннотация. Труд Махмуда Кашгари «Девону Лугатит Тюрк» является первым сравнительным словарем. Произведение было написано во времена Караханидов XI века, и большинство слов в нем были общеупотребительными словами того времени. Работа является великолепным результатом многолетней работы Махмуда Кашгари. Сегодня чтение и преподавание — одна из наших первостепенных задач.

Ключевые слова: анализ понятий, "Словарь Девону-турецкий", имена существительные, глаголы, гласные и согласные фонемы.

Bu asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. „Devonu lug‘otit turk“ning qo‘lyozmasi 1914-yil Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo‘lyozma hozirgi Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa “Devonu lug‘atit turk” yozilganidan salkam 200 yildan keyin, ya‘ni Mahmud Qoshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxadan 1266-yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy aldamashqiy tomonidan ko‘chirilgan.

“Devonu lug‘otit-turk”da ayniqsa qabila va urug‘ tillariga oid lingvistik ma‘lumotlar ancha batafsil berilgan. Bunda har so‘zning ma‘nolari (polisemiya, omonim, sinonim, antonim va arxaik so‘zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so‘zlarning etimologiyasiga to‘xtalib o‘tadi. Tovushlar (fonemalar)ning tahlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho‘ziq va qisqa unlilar, ularning urug‘ tillaridagi talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan. Morfologiya sohasida so‘z turkumlarini, davr an‘anasiga ko‘ra,

3 soʻz turkumiga: feʼl, ism, bogʻlovchiga boʻlinib, ularning yasash va turlanish yoʻllarini koʻrsatib oʻtadi. “Devonu lugʻotit-turk”da 250 dan ortiq maqol va matallar, oʻnlab sheʼriy parchalar keltirilgan.

«Devonu lugʻotit-turk» oʻzbekcha nashrining oxirida turkiy urugʻ, qabila, shaharlar va boshqalar toʻgʻrisida batafsil maʼlumotlar bor, asarning har bir jildida havolalar berilib, unda uchragan soʻz va iboralar keng taʼriflanadi, izohlanadi. Oʻzbekcha nashrining muhim tomonlaridan biri, uning har bir jildi asosida tuzilgan koʻrsatkichdir. Unda «Devonu lugʻotit-turk»da uchragan soʻzlar alifbo tarzida keltirilib, soʻzning oʻzbek va rus tilida tarjimai beriladi. Mazkur soʻzning «Devonu lugʻotit-turk» ning qaysi betlarida uchrashi (oldin oʻzbekcha, soʻng turkcha nashrlarining beti, satri) koʻrsatib oʻtiladi.

Asarni oʻrganish va uni keng targʻib qilish uchun qator interfaol metodlarga murojaat qilish zarur. Jumladan, **Tushunchalar tahlili** metodi.

Ikkinchi qismni birinchi qismda berilgan terminlar haqidagi maʼlumotlar bilan toʻldiring.

Terminlar	Maʼlumotlar
JITIG	“Devonu lugʻotit turk”da JITIG soʻziga “OʻTKIR”, “QAYRALGAN” deb izoh berilgan. Qilich va qilishga oʻxshash oʻtkir narsalarning barchasiga ham bu soʻz qoʻllanadi. “DLT” 2-T. 25-b
TOʻSH	
QOJJILI	
BASH	
SARJAGʻ	
AL OʻVUT	
SARIGʻ	
QAJAQ	
KOʻLIKA	
EGAMA	
SAJRAM	
JUGʻA	
JANUT	

2. „Devonu lugʻotit turk“ sari yuzasidan klaster bilan ishlash:



Alp Er to'nga marsiyasi, Qish va Yoz munozarasi, Doston uzindisi, Alqovlar, Marosim she'rlari, Jang tasviriga bag'ishlangan she'rlar, Ov tasviriga bag'ishlangan she'rlar, Tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlar.

3. Metodik o'yin

O'yin sharti: Quyida berilgan asarlarga mos ta'rifni toping (asarlarning raqamlari bilan berilgan, ularning ta'riflari esa harflarda berilgan). Sizingning javobingiz 1-a yoki 1-d kabi bo'lishi kerak.

1. "Muqaddimmat-uladab"
2. "Devon-u lug'atit-turk"
3. "Kitobi tarjimon turkiya va ajamiy va mug'aliy"
4. "At tuhfatus zakiyatu fil lug'atit turkiya"
5. "Kelurnoma"
6. "At-turki"

A) *Bu qadimiy qo'lyozma Ahmad Rif'at tomonidan chop etiladi. Arab tilidan K.Brokkelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, 1928 yilda Leypsigda, Bosim Atalay tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, 1939 yilda Anqarada nashr qilingan.*

B) Mazkur asar arab tili leksikologiyasi va grammatikasiga bag'ishlangan asar. Kitob muqaddima, ismlar bo'limi, fe'llar, harflar (yordamchi so'zlar), ismlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi bo'limlaridan tuzilgan. Shulardan ismlar va fe'llar qismi lug'at bo'lib, qolgan bo'limlar grammatikaga oiddir.

C) bu asarning muallifi shu kungacha aniqlanmagan. Biroq asar muallifi Mahmud Koshg'ariy izidan borib, turkiy qabilalar tillarini, ularning o'zaro o'xshash va farqli xususiyatlarini belgilashga harakat qilgan. Muallif bu asarida asosan qipchoqlar tilini o'rganishni tadqiqot uchun ob'ekt qilib olgan. Bu tilni turkman tili bilan qiyoslagan. Uning aytishicha, "eng ko'p qo'llanadigan til

qipchoq tili... Juda zarur bo'lgan o'rinlardagina turkman tiliga murojaat qildim", – deydi.

D) Asar 76 varoqdan iborat. Uning 62 varog'i turkcha-arabcha, qolgani esa mo'g'ulcha-forscha lug'atlar. Asar Misr yoki Suruyada yozilgan deb faraz qilinadi. Yodgorlik bitilgan joyda turkiy xalqlarning qipchoq, o'g'uz, turkman urug' xalqlari yashaganligi tufayli asarda ularning til xususiyatlari aks etgan. So'zlikda berilgan har bir bosh maqola arab tilidan tashqari, turkiy, fors va mo'g'ul tillari materiallari berilgan. Asosiy qism arabcha-turkiycha lug'atdan iborat.

E) Fazlullaxon Barlos lug'at tuzishda o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Fe'llarni 13 harfga, ismlarni 18 harfgabo'ladi. Arab va fors tillariga xosbo'lgan tovushlarni ifodalaydigan je, itqi, izg'i, sod, zod harflari bilan boshlanuvchi so'zlarga misollar bermaydi. Lug'at bismillohu Rahmonu Rahim kalimasi bilan boshlanib, to'lg'a so'zining izohi bilan yakunlanadi.

F) Mazkur asar haqida muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Bu lug'at ikki tipdagi lug'atni – uya va ideografik (Ideografik lug'at - lug'at turi. Bunda lug'atlar alifbo tartibida emas, balki mavzu bo'yicha tuziladi) lug'atni o'z ichiga oladi. Bu lug'at Hindistonda, boburiylardan Abu Muzaffar Muhiddin Aurangzeb hukmronligi davrida (XVII asrda) yaratiladi.

4. Glossary

1. Yag'mo A) Bolasog'unda yashovchi qavm
2. Ezgish B) Ila daryosi bo'yida yashagan
3. Sug'dak C) O'zganda turuvchi turkiy qabila
4. Qarluq D) Ko'chib yuruvchi xalq
5. O'g'uz E) Rumdan Chin yaqiniga qadar

5. Test

1. "Devonu lug'otit turk asari" kim tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan?
A) K.Brokkelman C) E.Fozilov
B) S.Mutallibov D)Q.Mahmudov
2. "Devonu lug'otit turk asari" necha bo'limdan iborat?
A) 6 C)8
B) 14 D)12
3. "Devonu lug'otit turk asari"ning qaysi qismi turkiy xalqlar hayoti haqidagi ma'lumotlarga bag'ishlaangan?
A) muqaddimasi C)6-bo'limi
B) lug'at qismi D)so'nggi bobi
4. Asarning lug'at qismiga faqat qysi tildagi so'zlar kiritilgan?
A) arabcha C)turkiy
B) forscha D)ajamiy
5. Mahmud Qoshg'ariy qalamiga mansub va shu kungavha topilmagan asar nomini ayting.
A) "Turkiy tillar morfologiyasi"
B) "Turkiy tillar sintaksisining javohirlari"

C) "Turkiy marvaridlar"

D) "Nazmiy baytlar haqnda"

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sodiqov Q. Tarixiy leksikografiya. – T, 2013
2. Umarov E. Eski o'zbek lug'atlari. – T, 1994
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Devonu_lug%CA%BBotit_turk
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/devoni-lug-otut-turk-indeks-lug-at>
5. Goldstein, B. (2017). A history of video in ELT. The image in English language teaching, 23-31.
6. Исраилова, М. Н. (2017). Формирование принципов устойчивого развития в обучении иностранным языкам. Международные научные исследования, (1), 161-163.
7. Исраилова, М. Н. (2016). Новые педтехнологии изучения латинского языка в медицинских вузах. Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения, (53), 66-71.
8. Исраилова, М. Н. К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ. In Конференция состоялась 5 марта 2022 года на базе Ташкентского государственного стоматологического института по адресу: Республика Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули, 103. Цель конференции – знакомство и обмен опытом в обучении и в работе с цифровыми данными, технологиями их применения в гуманитарных (p. 414).
9. Балашов, С. В., Вернер, И. В., & Бышевский, В. И. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДИК ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ.
10. Minakov, O. E. E., Andreev, A. A., & Ostroushko, A. P. (2017). The diabetic foot syndrome. Journal of Experimental and Clinical Surgery, 10(2), 165-172.
11. Bosiers, M., & Schneider, P. A. (Eds.). (2009). Critical limb ischemia. Informa Healthcare.
12. Svetukhin, A. M., Karlov, V. A., IuA, A., Matasov, V. M., & Blatun, L. A. (1990). General principles of the treatment of suppurative wounds and suppurative surgical diseases. Khirurgiia, (12), 79-84.
13. Лысова, Д. П., & Лысова, М. П. (2015). Малые ампутации нижних конечностей при синдроме диабетической стопы. In Бюллетень медицинских интернет-конференций (Vol. 5, No. 5, p. 853). Общество с ограниченной ответственностью «Наука и инновации».
14. Остроушко, А. П., Глухов, А. А., Андреев, А. А., Маркин, Д. А., & Лаптиева, А. Ю. Физико-химические основы инновационных методов и технологий в лечении ран мягких тканей. ДАГЕСТАНСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ, № 4 (41), 2021, 64.

15. Maxsudovich, K. O. CLINICAL COURSE OF PURULENT SOFT TISSUE DISEASES ON THE BACKGROUND OF DIABETES MELLITUS AND DIFFUSIVE TOXIC GOITER.
16. Рахимов, А. Я., Сагдуллаева, Г. У., & Вахидов, У. Г. (2019). МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ВАРИАЦИИ КУЛЬТЫ ГОЛЕНИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ПРИ КРИТИЧЕСКОЙ ИШЕМИИ НИЖНЕЙ КОНЕЧНОСТИ. Новый день в медицине, (2), 41-46.
17. Rakhimov, A. Y., Mhsudovich, Q. O., Ulyanovna, S. G., Safojev, B. B., Zaripovich, L. O., & Rakhimov, A. Y. (2019). Transcutaneous oximetry as the choice of the research for determination of level of amputation of the crus at critical ishemiya of the lower extremities at patients with the diabetes mellitus. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 8(12), 120-125.
18. Mitish, V. A., Safoev, B. B., & Rakhimov, A. Y. (2019). REAMPUTATION THE CULT OF THE CRUS IN PATIENTS WITH DIABETES MELLITUS IN CRITICAL ISCHEMIA OF THE LOWER EXTREMITIES. Central Asian Journal of Pediatrics, 2(1), 230-234.
19. Митиш, В. А., Сафоев, Б. Б., & Рахимов, А. Я. РЕАМПУТАЦИЯ КУЛЬТЫ ГОЛЕНИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ПРИ КРИТИЧЕСКОЙ ИШЕМИИ НИЖНИХ КОНЕЧНОСТЕЙ.